



KONNOTATSIYA TUSHUNCHASINING LINGVISTIK MOHIYATI, TALQINI MASALASI

Toshqulov Maxtumquli Maxamdqulovich,
Oriental universiteti Lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada konnotatsiya tushunchasining lingvistik mohiyati, uning tilshunoslikdagi o'rni va talqin masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Konnotatsiya denotativ ma'nodan tashqari, so'z va iboralarda mujassam bo'lgan qo'shimcha emotsional, baholovchi va ekspressiv ma'nolar majmui sifatida izohlanadi. Maqolada konnotatsiyaning semantik, pragmatik va stilistik jihatlari yoritilib, turli tilshunoslik maktablarida ushbu tushunchaga berilgan ta'riflar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, konnotatsiyaning nutq jarayonidagi funksional ahamiyati, badiiy matn va kundalik nutqda ifodalanish xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari konnotatsiya tushunchasini chuqurroq anglash va uni semantik tadqiqotlarda samarali qo'llash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: konnotatsiya, denotatsiya, semantika, lingvistik ma'no, pragmatika, stilistika, emotsional ma'no, baholovchi ma'no.

Konnotatsiya tilning ekspressivlik xususiyatini aks ettiruvchi hodisadir. Konnotatsiya til birliklari orqali nutqda namoyon bo'lishiga ko'ra til va nutqqa xos xususiyatlarni qamrab oladi. Konnotatsiya inson hissiyotlarini namoyish qiluvchi emotivlikdan farq qiladi, ammo bu ikki hodisa o'zaro bog'liq va nutqda ko'pincha birga voqelanadi. Konnotatsiya til birliklarining ta'sirchanlik xususiyatini aks ettirganda, asosiy hollarda hissiy munosabat fonida reallashuviga ko'ra emotivlik hodisasi bilan bevosita aloqaga kirishadi. Insonning hissiy munosabati aks etgan nutqi, albatta, ta'sirchan bo'ladi. Bunday vaziyatda konnotatsiya emotivlik bilan birga namoyon bo'ladi. Ayrim tilshunoslarga mana shu jihatni inobatga olib, konnotatsiyani hissiy munosabat ifodalovchi til hodisasi sifatida talqin qilishadi. Jumladan, V.I.Shaxovskiyning qayd etishicha, "konnotatsiya mantiqiy-predmetlik nominatsiyasiga hamroh bo'lgan, nom obyekti yoki uning muayyan belgisiga nisbatan bildirilgan so'zlovchining hissiy munosabatidir"²⁸. S.V.Marchenko emotivlik va ekspressivlikning birga namoyon bo'lishi, ammo aynan kategoriyalar emasligini e'tirof etgan holda ularning aloqasi so'zning konnotativ komponentlari reallashuvida aniqlanishini qayd etadi. Olimaning fikricha, emotivlik konnotatsiyaning komponenti bo'lishi mumkin. Ekspressivlik – bu so'zning bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi hamda

²⁸ Шаховский В. И. Категоризация эмоций в лексикосемантической системе языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1987. – С. 21.



umumiylikka birlashuvchi emotivlik, intensivlik, obrazlilik kabi konnotativ komponentlari orqali hosil bo'luvchi xususiyatidir²⁹.

“Konnotatsiya” termini lotin tilidan olingan bo'lib, “qo'shimcha belgi” yoki “birga yuruvchi ma'no” degan mazmunga ega. Lingvistik adabiyotlarda konnotatsiya – bu so'zning asosiy (denotativ) ma'nosidan tashqari, unga yuklangan subyektiv, emotsional va stilistik komponentlar yig'indisi sifatida izohlanadi. So'z o'zining denotativ ma'nosida obyektiv haqiqatni ifodalasa, konnotativ qatlam esa ushbu obyektga bo'lgan munosabatni, hissiyot yoki bahoni ifoda etadi.

Masalan, “ona” so'zi denotativ jihatdan biologik ayol shaxsni bildirsa-da, konnotativ qatlamda mehr, g'amxo'rlik, fidoyilik kabi tushunchalarni o'zida jamlaydi. Demak, har bir leksik birlik nafaqat sofligi bilan, balki o'ziga xos “semantik aurasini” – ya'ni konnotatsiyasi bilan ham farqlanadi.

Ta'kidlanganidek, konnotatsiya asosiy hollarda emotivlikning ifodalanishi fonida yuzaga chiqadi. Ammo bu konnotatsiya ifodalanagan gaplarda doimo insonning hissiy munosabati, emotsiyalari aks etadi degani emas. Masalan, muloqot jarayonida “Eshikni yop” axborotini “Eshikni yopasanmi?” so'roq gapi orqali bayon qilish mumkin. Bunda buyruq xarakteridagi axborotni so'roq gap orqali ifoda etish orqali ta'sirchanlikka erishiladi. Natijada so'roq gap konnotatsiyani ifodalashga xizmat qiladi. Ammo sokinlik bilan aytilgan mazkur so'roq gapda nutq egasining hissiy munosabati sezilmaydi. Albatta, bunday vaziyatda gap intonatsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu gapning ohangini o'zgartirish orqali hissiy munosabat (e'tiroz, g'azab kabilari)ni ifodalash ham mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, konnotatsiya emotivlik yonma-yon yursa-da, u bilan aynan bir hodisa emas. Emotivlikni konnotatsiyaning muayyan komponenti sifatida baholash ham unchalik to'g'ri emas. Bu o'rinda konnotatsiya bilan aloqador ekspressivlik va emotivlikni anglatuvchi emotsionallik tushunchalarini farqlash lozim bo'ladi. Ekspressivlik tushunchasi an'anaviy tarzda til birliklari orqali namoyon bo'ladigan nutqning ta'sirchanlik, ifodalilik belgisini anglatadi, emotsionallik deganda hissiy munosabatning ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik bir vaqtda nutqiy ta'sir ko'rsatish jarayonini ham qamrab oladi. Ekspressivlik tilning barcha sathlarida namoyon bo'lsa, emotsionallikning asosiy ifoda birligi insonning hissiy holati, uning emotsiyalarini ifodalovchi maxsus leksemalar sanaladi. Emotivlik va ekspressivlikning farqli belgilarini inobatga olgan S.V.Marchenko emotivlikni semantik kategoriya, ekspressivlikni esa stilistik hamda umummatniy kategoriyalar tarkibiga kiruvchi alohida kategoriya hisoblaydi. Bizningcha, ekspressivlikni konnotativlikni aks ettiruvchi pragmatik kategoriya sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Zero, konnotatsiya til birliklarining ekspressivlik xususiyatini aks ettiruvchi pragmatik hodisadir.

²⁹ Марченко С.В. Категория эмотивности и экспрессивности в повестях и рассказах И.С.Тургенева 1871-1882 г.г.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – С.5.



Emotsionallik ekspressivlik umumiy va xususiy belgilarga egaligi hamda nutqda bir-biri bilan bog‘liqlikda yuzaga chiqishi sababli tilshunoslikda bu ikki kategoriya ko‘pincha ekspressivemotsionallik termini ostida birlashtirilib, tadqiq etilganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, tilshunoslar bu ikki kategoriya bo‘yicha yakdil fikrda emaslar. Ekspressivlik kategoriyasining emotsionallik kategoriyasi bilan aloqasi, ularning o‘zaro muvofiqlashuvi masalasi bo‘yicha hanuzgacha so‘nggi xulosaga kelinmagan. Ma‘lumki, har bir inson voqelik haqida shunchaki axborot bermaydi, voqelikni ta’sirchan ifodalash jarayonida unga o‘z bahosini bildirib o‘tishga harakat qiladi. Bunday vaqtda konnotatsiyaga subyektiv baho hamrohlik qiladi. Masalan, “Eh, qani endi hammasi sen aytganday yaxshi bo‘lsa!” gapi orqali “Hammasi sen aytganday yaxshi emas!” axboroti ta’sirchan ifodalangan. Shu bilan birga ushbu gapda nutq egasining tushkun kayfiyati, voqelikka salbiy munosabati seziladi. Demak, bunday gaplarda konnotatsiya, emotivlik va baho kategoriyalari bir vaqtda bir sintaktik struktura orqali namoyon bo‘ladi. Anglashiladiki, konnotatsiya emotivlik, baho munosabati kabi yondosh hodisalar bilan bog‘liq holda voqelanadi³⁰.

Konnotatsiya lingvistik birliklarning ichki tuzilmasida quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

Emotsional konnotatsiya – so‘z orqali ifodalangan hissiy munosabat. Masalan, qushcha, go‘zalim, urib tashla – bu so‘zlar hissiyot yuklaydi.

Baholoviy konnotatsiya – ijobiy yoki salbiy qiymat ifodalovchi ma‘no. Masalan, qahramon – ijobiy, xoin – salbiy baho beradi.

Stilistik konnotatsiya – so‘zning ma‘lum nutq uslubiga mansubligini bildiradi: iborat (ilmiy uslub), gapiribdi (og‘zaki uslub).

Ijtimoiy yoki madaniy konnotatsiya – jamiyat, madaniyat yoki tarixiy sharoitda shakllangan qo‘shimcha ma‘nolar (masalan, qizil – sovet mafkurasi bilan bog‘liq).

Bu turlarning har biri tildagi semantik ko‘p qatlamlilikni yuzaga chiqaradi va tilni oddiy aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy-ma‘naviy tafakkur ifodachisi sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Ma‘lumki, jahon tilshunosligida denotatsiya va konnotatsiya xususida tadqiqotlar bir necha asrlardan beri olib borilmoqda. Tilshunoslikda, ayniqsa semantikada tez-tez uchraydigan konnotatsiya atamasi, jaxon tilshunoslarining tomonidan turli ma‘nolarda qo‘llaniladi. Uilyam Okhem tomonidan atamaning tarixi paydo bo‘lgan va uning turli xil qo‘llanilishi va talqinlari haqida Garza Cuaron yozib o‘tgan. Lyons konnotatsiyaning ma‘lum ma‘nolarini ikki guruhga bo‘ladi: mantiqiy-falsafiy tushuncha sifatida konnotatsiya, konnotatsiya sifatida lingvistik tushuncha. Denotatsiya va konnotatsiya so‘zlarni ifoda qilishning ikkita muhim uslubidir. Konnotatsiya vujudga kelganiga yuz yildan ortiq vaqt o‘tganiga qaramay, uning

³⁰ Rahmatova S. KONNOTATSIYANING MOHIYATI VA UNING EMOTIVLIK VA BAHO MUNOSABATI KATEGORIYALARIGA MUNOSABATI // ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI. – Toshkent, 2024. – B. 70-71.



mazmuni hali ham o'zgarib kelmoqda. Tilshunoslikda, ayniqsa semantikada tez-tez uchraydigan konnotatsiya atamasi, jaxon tilshunoslarining tomonidan turli ma'nolarda qo'llaniladi. Uilyam Okhem tomonidan atamaning tarixi paydo bo'lgan va uning turli xil qo'llanilishi va talqinlari haqida Garza Cuarón yozib o'tgan³¹. Lyons konnotatsiyaning ma'lum ma'nolarini ikki guruhga bo'ladi: mantiqiy-falsafiy tushuncha sifatida konnotatsiya, konnotatsiya sifatida lingvistik tushuncha³². Kerbtat va Sansomening ilmiy izlanishlariga ko'ra, konnotatsiyaning umumiy lingvistik tushunchasi juda keng va noaniq: u barcha turdagi til birliklarining rang –barang fonetik, stilistik, talaffuz va semantik xususiyatlarini o'z ichiga oladi³³. Bieswanger va Beckerning ta'kidlashicha so'z nazarda tutilgan identifikatsiya deyiladi³⁴. Masalan: uy so'zining ta'rifi insonlar yashaydigan bir makon. Biroq, so'zning denotati orqali ham konnotatsiyaning ma'nosini bemalol tushunish mumkin, chunki konnotatsiya so'zning asl ma'nosiga aloqadorlik holda yuzaga keladi. Masalan: Qushning ham uyi buzilmasin misolini olsak, ya'ni xech kimning oilasi buzilmasin. Bu yerda ham uy oila ya'ni yashaydigan makon sifatida nazarda tutilyapti. Nemis tilshunosi Van Leeuwen denotatsiya va konnotatsiya atamasini John Stuart Mill ya'ni so'zlarning ikki xil ma'nosi bor deb ta'riflagan ingliz faylasufi tomonidan yaratilgan deb ishongan. Mill so'z orqali uzatiladigan belgilarni konnotatsiya deb tushundi³⁵. Semantik strukturaning "qo'shimcha" mikrokomponenti sifatida harakterlangan konnotatsiya an'anaviy ravishda ekspressivlik tushunchasi yoki tilning ekspressivlik funksiyasi nomini olgan uslubiy baholash va hissiy funksiyalarini mikrokomponenti sifatida harakterlanganini ichiga oladi. Ravshanki, V.fon Gumboldt tadqiqotiga nazaryasiga asosan, "ichki shakl" tilda ma'no hosil qilishning assosiativ-obrazli tarzda motividir³⁶. A.A.Potebnya ham V.Gumboldt fikrini ma'qullagan holda, bu tushunchani psixologik asos tarzida namoyon qilishga, ichki shaklga dinamik hodisa sifatida qarashga harakat qildi: "Agar subyektiv mazmunni olib tashlasak, so'zda faqat tovush, ya'ni tashqi va etimologik mazmun qoladi, u ham shakl, ammo ichki shakldir. Ichki shakl fikr mazmunining ongga munosabatidir, u insonga o'z shaxsiy fikrini qanday ifodalashini ko'rsatadi"³⁷.

Rus tilshunoslari olimlaridan G.V.Kolshanskiy, N.G.Komlev, V.I.Goverdovskiy, V.N.Teliya tomonida konnotatsiya keng qamrovda o'rganilgan, tor tushunchani esa A.V. Flippov, I.V.Arnold, I.A.Sternin, N. F. Alefirenko, V.I. Shaxovskiy, Yu.D.Apresyan lar tomonidan tadqiq qilingan. Ba'zan rus tilshunosligida "an'anaviy" deb nomlanadigan konnotatsiyaning chegaralangan ko'rinishiga duch kelishimiz

³¹ Garza-Cuarón, Beatriz (1991): *Connotation and Meaning*. Berlin/New York

³² Lyons, John (1977): *Semantics*. Volume 1. Cambridge

³³ Kerbtat-Orecchioni, Catherine (1977): *La connotation*. Lyon; Sansome, Rosemary (1986): "Connotation and lexical field analysis." // *Cahiers de lexicologie* 49/2. 13-33

³⁴ Bieswanger, Markus & Becker, Annette (2008). *Introduction to English linguistics*. 2 ed. Tübingen: A Francke.

³⁵ Mill, Dj. Mill, J.St. *Of names Theory of meanings*. Prentis-Hall, 1970.1. Slovari

³⁶ Garza-Cuarón, Beatriz (1991): *Connotation and Meaning*. Berlin/New York.

³⁷ Потебня А. А. Из записок по русской грамматике. – Т. 1-2. – М.: Госпедиздат, 1958. – С. 47.



mumkin va bu o'z navbatda tilshunos olimlar o'rtasida biroz tortishuvga sabab bo'lgan. Cheklangan ma'noda konnotatsiya tilshunoslikning alohida elementi sifatida tasniflanadi ya'ni birlik ma'nosi, unga nom berish va uning obyektiv ma'nolari bilan yakunlash uchun ikkinchi darajali vazifani bajaradi, shuningdek voqelikda ifodalangan harakatning assosiativ-majoziy ifodasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, konnotatsiyaning og'zaki va lingvistik hodisasi, so'zning ma'no tarkibidagi o'rni, uning hajmi va uning komponent tarkibi ko'plab ilmiy ishlar olib borilayotganiga qaramay ko'plab bahslar davom etmoqda va bu o'z navbatida konnotatsiya muammosini chuqur lkonnotatsiya eksikografik yozuvlarda qayd etilmagan so'z manbalari sifatida konnotatsiya idrok etish jarayonida inson ongida so'zlar, belgilar orqali yaratilishi konnotatsiya so'z ma'nosining moddiy tuzilishi emasligi konnotatsiyani asl ma'nolar ustidan hukmronlik qilishi ma'lum bir kontekstda o'zini namoyon qilishi bo'ladigan birliklar mazmunining yangi tarkibiy qismlari sifatida konnotatsiyaning semantik mohiyati uning ko'chma ma'nolarda ishlatilishi konnotatsiya majoziy ma'nolarda sodir bo'lishi V.N.Teliya G.V.Kolshanskiy N.G.Komlev V.I.Goverdovskiyy konnotatsiya belgining umumiy tizimli ma'nosining tarkibiy qismi sifatida konnotatsiyaning konteks bilan uzviy bog'liqligini I.V.Arnold lingvistik birlikning "hissiy va stilistik semantik mazmuni" faqat konnotatsiyaga ishora qiluvchi uning bir qismi A.V.Flippov so'zning baholovchiligi bu to'la denotativ komponent konnotatsiyaning ko'chma ma'noda moddiylashishi so'zning asosiy va ilk ma'nosini ifodalanishi Yu.D.Apresyan konnotatsiya leksik ma'no birlik jixati sifatida uning yordamida so'zlovchining hissiy va shartli holati V.I. Shaxovskiy aniqlanishi Konnotatsiya tizimli va vaqti-vaqti bila bo'ladigan hodisa Konnotatsiya ta'rifini cheklash noqonuniydir I.A.Sternin tadbiq etishni taqazo etmoqda. Muayyan til birliklari va ularning konnotativ qismlari o'rtasiga farqlarni qanday ajratish hali ham ma'lum emas. Leksikografik talqin uchun hali kerakli konnotatsiyaning usullari va yo'llari izlanib topilmagan. Lingvopragmatikaning konteksdagi konnotatsiyaning o'rganish hozirgi nazariy tilshunoslikdagi noaniq xuddi shunday tushuncha ko'plab olimlarni o'ziga jalb etdi va so'ngi vaqtlarda ularda qiziqish uyg'otdi. Ilmiy yozuvda "implikatsiya" va "konnotatsiya" so'zlari ba'zan bir-birining o'rnida ishlatiladi. Natijada, adabiy matnlardagi semantik jarayonlarning eng taniqli olimlaridan biri J. Jenetta o'zining ishlarida konnotativ ma'no va implikit ortasida tafovutni ajratmaydi, garchi konnotatsiya mavzusiga katta e'tibor qaratgan bo'lsa ham.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bieswanger, Markus & Becker, Annette (2008). Introduction to English linguistics. 2 ed. Tübingen: A Francke.
2. Garza-Cuarón, Beatriz (1991): Connotation and Meaning. Berlin/New York



3. Kerbtat-Orecchioni, Catherine (1977): La connotation. Lyon; Sansome, Rosemary (1986). "Connotation and lexical field analysis. // Cahiers de lexicologie 49/2. – P. 13-33.
4. Lyons, John. Semantics. Volume 1. – Cambridge, 1977.
5. Mill, Dj. Mill, J.St. Of names Theory of meanings. Prentis-Hall, 1970.
6. Rahmatova S. Konnotatsiyaning mohiyati va uning emotivlik va baho munosabati kategoriyalariga munosabati // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 70-71.
7. Марченко С.В. Категория эмотивности и экспрессивности в повестях и рассказах И.С.Тургенева 1871-1882 г.г.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – С.5.
8. Потебня А. А. Из записок по русской грамматике. – Т. 1-2. – М.: Госпедиздат, 1958. – С. 47.
9. Шаховский В. И. Категоризация эмоций в лексикосемантической системе языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1987. – С. 21.